va dushmanga kutilmagan zarba berish imkoniyati boy berildi. Agar Amir oʻsha kecha uxlamaganida, tong saharda Togʻrilbeyni qoʻlga olish imkoni boʻlar edi.

Amir tongda Nowqqa yetib, namoz ado qildi va qoʻshin tez yurishga otlandi. Kurd va arab lashkarlariga Badr lashkarboshi, gʻulomlar guruhiga esa Ertegin boshchilik qildi. Ammo Togʻril allaqachon Ostovadan oʻtib ketgan, turkmanlar esa shoshilishdan yuklarini tashlab qochishga majbur boʻlishgan edi. 1039-yil 25-noyabr kuni Amir ularga yetib bordi, biroq Togʻrilni qoʻlga olishning iloji boʻlmadi. Bundan qattiq ranjigan Amir oʻz noroziligini yashirmadi. U dushmanni quvish uchun Tegin Jalmiyni yuzlab gʻulom va besh yuz chavandoz bilan yubordi. Ammo ular qaytib kelganda Togʻrilbey qoʻlga olinmaganini, faqat yuk va kiyim-kechakni qoʻlga kiritganliklarini aytishdi. Togʻril yangi otlarni tayyorlab qoʻygani uchun tezda qochib qutulishga muvaffaq boʻlgan edi. Shundan soʻng Amir ikki kun lashkarini dam oldirdi. Bu vaqtda Abu Sahl Hamdaviy va boshqa lashkarboshilar 500 chavandoz bilan yetib kelishdi. Amir ularni Nishopurga yuborib, shaharni tinchlantirish, oziq-ovqat va yem-xashak toʻplashni topshirdi, chunki qish shu yerda oʻtkazilishi rejalashtirilgan edi. Keyin Amir Bovard tomon tezkor yurish boshladi. Togʻrilbey esa bu vaqtda turkman lashkari bilan birlashib, yuklarni sahroga yubordi va jang orqali dushman kuchini sinab koʻrishni maqsad qildi. Chunki u sulton lashkarining qudrati endi avvalgidan mutlaqo boshqa darajada ekanini anglab yetgan edi.

Sulton Masʼud lashkari Bavardga yaqinlashganida, tepaliklardagi qoʻriqchilar dushmanning harakati haqida xabar berdilar. Togʻrilbey, Dovud va turkman lashkari sardorlari yuklarini shoshilinch joʻnatib, sahro sari chekindilar, ammo Sultonning ishonchsizlik bilan qabul qilgan qarori turkman lashkarboshchilarini qoʻlga olishga imkon bermadi. Shu vaziyatda davlat arboblari maslahatga chaqirildi. Vazirning taklifi bilan qoʻshin Nisoga yoʻl oldi. Bu qaror strategik jihatdan dushmanga bosim oʻtkazish va Gʻaznaviylarning jiddiy safarbarlikda ekanini namoyish qilishga qaratilgan edi. Saljuqiylar Balxan togʻlari tomon chekinishga majbur boʻldilar. Hatto manbalarda Togʻrilning bir necha kun zirh va etiklarini yecholmay yurgani, uyquga qalqonini yostiq qilgani haqida qayd etiladi.

Ammo Nisoda ham muammolar davom etdi. Oziq-ovqat tanqisligi sabab askarlar norozilik bildirdi. Shundan soʻng Amir qaytib, Bavard va Ostova orqali Nishopurga yoʻl oldi. 1040-yil 4-yanvar kuni Nishopurga yetib bordi. 16-yanvar kuni Shodiyox bogʻida qoʻnildi. Bu yerda Suri tomonidan Togʻrilbey egallagan Masʼud taxti va minbari qayta tiklangan edi. Amir bundan mamnun boʻlib, qoʻshin uchun yigirma kunlik oziq-ovqat va yem-xashak zaxirasini tayyorlattirdi [3].

Saljuqiylar bilan kurashlar chogʻida Nishopur jiddiy vayronaga aylandi. Shahar hayoti izdan chiqdi, ocharchilik va qashshoqlik avj oldi. Non narxi uch dirhamga yetdi, uy egalari tomlarini buzib sotishga majbur boʻldilar, koʻplab oilalar ochlikdan halok boʻldi. Yer bahosi keskin tushib, pulning qiymati tushib ketdi. Muhaddis Imom Muvaffaq ham shahardan qochib ketdi. Amir ishonchli lashkarlarini turli tumanlarga joylashtirdi: Badr – Bostga, Altuntosh – Bayhaqqa, bosh qoʻmondon esa Tusga yuborildi. Atrof hududlar qoʻshin bilan toʻldirilgan boʻlsa-da, Amirning oʻzi aysh-ishratga berildi. Qahraton sovuq va ocharchilik xalq hamda qoʻshinga katta talafot yetkazdi.

**Jangning boshlanishi:** Navroʻzdan keyin Sulton Masʼud yurishga tayyorgarlik boshladi. U Xuroson tozalanmaguncha Suriy ham xavf ostida qolishini aytib, uni ham safarga qoʻshdi. Shu davrda bir qancha amaldorlarga unvon va liboslar berildi. 16-martda Amir Nishopurni tark etib Tus tomon yoʻl oldi. Harbiylar razvedkaga yuborildi. Biroq oziq-ovqat tanqisligi keskinlashib,

non narxi 13 dirhamgacha koʻtarildi, arpa butunlay yoʻqoldi. Ochlik odamlar va chorvalar orasida katta talafot keltirdi, isyon xavfi yuzaga keldi. 5-may kuni qoʻshin Saraxsga yoʻl oldi. Yoʻlda minglab otlar nobud boʻldi, askarlar tushkunlikka tushdi. 14-mayda Saraxsga yetib kelishganda shahar xarobaga aylangani, aholi koʻchib ketgani va oziq-ovqat qolmagani maʼlum boʻldi [3]. Askarlar chorva uchun chirigan oʻt yigʻishga majbur boʻlishdi, ammo hayvonlar yemay qirilib ketdi. Sulton Masʼud harbiy kengash chaqirdi. Lashkarboshilar uni Hirot tomon burilishga chaqirishdi, chunki u yerdan taʼminot topish mumkin edi. Ammo Amir qatʼiyan rad etdi: "Men faqat Marvga boraman, dushman ham oʻsha yerda", dedi. Harbiylarning noroziligiga javoban u "Agar bu mavzuni yana koʻtarsangiz, boshlaringizni kesaman," deya tahdid qildi. Sultonning Marvga yurish qarori ichki nizolarga sabab boʻldi. Bu qarorga qarshi chiqqanlar jazolandi, hatto unga yuborilgan elchilar ham haqorat eshitib qaytdi. Bosh qoʻmondon Ali Doya amirga nisbatan ishonchsizlik bildirib, oʻz bayrogʻi va nogʻoralarini yoʻq qilib tashladi. Vazir va bosh qoʻmondonlar chetga qolib, Sulton Masʼud oʻz qarorlarni shaxsiy xizmatchilari bilan muhokama qila boshladi. Bundan norozi boʻlgan vazir, qoʻshinning ahvoli ogʻirlashgani, askarlar ochlikdan qiynalgani va bu holat isyonga olib kelishi mumkinligini aytib, Altuntoshdan maslahat soʻradi. Altuntosh, oddiy lashkarboshi ekanligini aytib, qoʻrqmasdan vazirga qoʻshinning ahvoli yomonligini, jang qila olmasligini va hatto dushmanga taslim boʻlishi mumkinligini ochiq aytdi. U dushman hujum qilsa, halokat muqarrar boʻlishidan xavotirda ekanligini bildirdi. Vazirning "bu gaplarni amirga toʻgʻridan-toʻgʻri ayta olasizmi?" degan savoliga Altuntosh, oʻzining amir xizmatidagi oʻrnini eslatib, albatta aytishini maʼlum qildi. Vazir unga namozdan soʻng amir bilan shaxsiy uchrashuv oʻtkazib, bu maslahatni berishni taklif qildi. Agar amir quloq solsa, bu davlat uchun foyda boʻlishini, quloq solmasa ham, Altuntosh oʻz burchini ado etgan boʻlishini tushuntirdi. Amir huzuriga kirgan Altuntosh muammoni tushuntirdi. Ammo sulton uning gaplarini rad etib, bu maslahatga kimdir undaganini aytib, Altuntoshni "soddalik"da aybladi va endi bunday xato qilmaslikni buyurdi.

Sulton Masʼud esa hamon oʻz qaroridan qaytmagan edi. Ramazon oyining 17-may juma kuni Marvga yoʻlga chiqishga buyruq berdi. Qoʻshinning ahvoli juda ogʻir edi: askarlar och, hayvonlar ozgʻin, yoʻllarda suv va oziq-ovqat yoʻq edi. Sulton qoʻshinning ahvolini koʻrib, ularga pul tarqatishni buyurdi [3]. 22-may kuni 1500 nafar turkman otliqlari qoʻshinga hujum qilib, koʻplab tuyalarni haydab ketdi. Qoʻshin ularga qarshilik koʻrsata olmadi. Bu voqeadan soʻng amir vaziyatning ogʻirligini tushunib, bosh qoʻmondonlar bilan uchrashdi, ammo faqatgina vazir va Abu Sahl Zavzani bilan maxfiy kengash oʻtkazdi. Peshindan keyingi yigʻinda amirzodalar va lashkarboshilar qoʻshinning ahvoli yomonligini, askarlarning jasorat koʻrsata olmasligini bildirdilar. Ular amirga qoʻshin isyon qilishidan xavotirda ekanliklarini ham maʼlum qilishdi, chunki ayrim askarlar tuyada jang qila olmasliklarini aytib, ertaga jang boʻlsa, boshqa askarlardan otlarni tortib olishga tayyorligini bildirishgan.

Bu vaziyatda vazir hal qiluvchi taklif kiritdi: endi ortga qaytish magʻlubiyatni tan olish boʻlgani uchun, bir muddat jangni toʻxtatib, Marvga yetib borish va shahardagi oziq-ovqat zaxiralarini egallash kerak. Bu reja barchaga maʼqul boʻldi.

Ayni paytda, dushman tomon, yaʼni Togʻrilbey boshchiligidagi saljuqiylar orasida ham kelishmovchiliklar mavjud edi. Togʻrilbey boshqa hududlarni, masalan, Jurjon va Rayni egallashni taklif qildi, chunki amir Masʼud kabi qudratli hukmdorga qarshi kurashishni xavfli deb hisobladi. Ammo Dovudbey, bu fikrga qatʼiyan qarshi chiqdi. Dovud endi ortga qaytish ojizlik belgisi ekanligini, Masʼudga qarshi jangni boshlagach, uni oxirigacha olib borish

lozimligini aytdi. Uning aytishicha, gʻalaba qozonilsa, butun dunyo ularniki boʻladi, magʻlub boʻlsa ham qochish imkoni bor. Dovud Mas’ud qoʻshinining ham ogʻir ahvolda ekanligini ta’kidladi. Yabgʻu, Togʻril va boshqa qoʻmondonlar Dovudning jasoratli fikriga qoʻshildilar. Ular asosiy karvonni oldinga yuborib, 16 ming kishilik asosiy kuch bilan jang uchun tayyorgarlik koʻrishga qaror qildilar.

Bu paytda sulton Mas’udning aygʻoqchilari sultonga tinimsiz dushmanning harakatlari haqida ma’lumot yuborib turishyotgan edi. Amir yashirin maktublarni vazir va boshqa nufuzli amaldorlarga oʻqib berdi. Maktublarda dushman qoʻrquvda ekanligi yozilgandi. Shunga qaramay, amirning boshqa bir notoʻgʻri qarori vaziyatni yanada murakkablashtirdi: u bosh qoʻmondon Begtugʻdini chetlab oʻtib, Ertegin va boshqa kichik amaldorlarga koʻrsatmalar berdi. Koʻzi ojiz, qoʻl-oyoqlari zaiflashgan Begtugʻdi esa noroziligini ochiqchasiga bildirdi, “Endi men hech narsani koʻra olmayman, Ertegin va amir biladi”, deb javob berdi. Uning gʻulomlari faqat Begtugʻdiga quloq solganligi uchun qoʻshin orasida tarqoqlik va sustkashlik yuzaga keldi.

23-may kuni, payshanba kuni, amir qoʻshinni toʻliq jangovar holatda yoʻlga boshladi. Bir farsax yoʻl yurilganida, 16 ming kishilik dushman qoʻshini ikki qanotdan hujum qildi. Qoʻshinning mudofaasi sustligi sezilarli boʻldi. Ba’zi askarlar jang qilish oʻrniga tuyada yurgan gʻulomlar shunchaki jangni kuzatishar edi. Dushman kuchayib borar, gʻaznaviylar qoʻshini esa jangga bardosh bera olishmas edi. Dushman bilan boʻlgan jangda amir va uning yaqin amaldorlari mardona kurashishdi. Jang peshingacha davom etdi va natijada qoʻshin ogʻir ahvolda, ruhi tushkun holda daryo boʻyiga chekinishga majbur boʻldi. Askar va gʻulomlar orasida vahima hukm surar, ular hatto qochishga tayyorgarlik koʻrib, mol-mulklarini yigʻishtirmoqda edi.

Amir bu ogʻir vaziyatda oʻzini qat’iyatli tutishga harakat qildi. Asr namozi vaqtida oʻtkazilgan maxfiy kengashda qoʻshinning jangovarlik darajasi pastligi muhokama qilindi. Ayniqsa, hind va saroy gʻulomlarining sustkashligi tanqid qilindi. Amir bosh qoʻmondon Begtugʻdidan gʻulomlarning nega toʻliq jang qilmayotganini soʻradi. Begtugʻdi otlar yoʻqligi va yem-xashak yetishmasligini roʻkach qilib, ertasi kuni ularni tanbeh berib, jang qilishga undashini aytdi.

Amir vazir va Bu Sahl Zavzani bilan alohida uchrashuvda vaziyat nazoratdan chiqib ketayotganini tan oldi. Vazir bu vaziyatga bir necha sabablarni koʻrsatdi: Begtugʻdi bilan bogʻliq eski kelishmovchiliklar, ayniqsa Hirotdagi otlar janjali va Erteginning lavozimga tayinlanishi. Vazirning fikricha, Begtugʻdining koʻnglini olish zarur edi, chunki u saroy gʻulomlar orasida katta obroʻga ega boʻlib, uning soʻziga quloq solishar edi. Vazir hind lashkarlariga ham tanbeh berishni maslahat berdi [3].

Amir bu maslahatlarni qabul qilib, Begtugʻdini chaqirtirdi. Unga nisbatan samimiy boʻlib, eski muammolarni hal qilishga va’da berdi. Begtugʻdi amirning lutfidan mamnun boʻlib, gʻulomlarning jang qilmasligiga otlar yetishmasligini asosiy sabab qilib koʻrsatdi va ularga ikki yuzta puxta tanlangan arab oti berilishini soʻradi. Amir bunga rozi boʻldi va otlarni oʻsha kechadayoq tarqatishga buyruq berdi. Hind lashkarining boshligʻi ham chaqirilib, tanbeh berildi. U ham qoʻshinning och ekanligini va otlarining holdan toyganini aytdi, ammo burchlarini bajarishga va ertasi kuni jang qilishga va’da berib, vaziyatni yumshatishga harakat qildi.

Abu Sahl Zavzani lashkar ichida vahima tarqalishidan xavotirga tushib, barcha gʻulomlarga shaxsiy buyumlarini tuyalarga ortishni buyurdi. Oʻzi ham shunday qildi. Sulton

Mas'ud ham vaziyatning og'irligini tushunib, tungi soatlarni qo'shinni shay qilish, g'ulomlarga otlar tarqatish va ehtiyot choralarini ko'rish bilan o'tkazdi. Ertasi kuni, juma tongida qo'shin yo'lga chiqdi. Amirning atrofida ellik-oltmish tuya, uch yuz g'ulom va o'n ikki fil bor edi. Biroq, ular yarim farsang ham yurmasdan dushman to'rt tomondan shiddatli hujum boshladi. Jang o'ta shiddatli kechdi, lekin lashkar uzoq yo'l bosib o'ta olmadi. Tush paytida qo'shin Dandanoq qal'asiga yetib keldi. Sulton qo'shinni to'xtatib, suv so'radi. Qal'a aholisi suv tushirgan bo'lsa-da, atrofda suv manbalari qurib qolgan edi. Qal'a ichidagi beshta quduq butun qo'shin uchun yetmasdi. Amir maslahatchilarining "shu yerda to'xtash kerak" degan taklifini rad etdi va g'azab bilan "bunday kam suv bilan yigirma ming kishilik lashkar qanday yashaydi?" deb e'tiroz bildirdi. Bu halokatli qaror qo'shin ichidagi intizomni butunlay buzdi. Ko'lga qarab yo'lga chiqqan qo'shin ichida saroy g'ulomlari o'z askarlarining otlarini tortib ola boshladilar. Shundan so'ng 370 nafar g'ulom bayroqlarini ko'tarib, turkmanlarga qo'shilib ketdi. Ular bilan avvalroq qochib ketgan g'ulomlar ham birlashdi. Bu xiyonatkor harakatdan so'ng g'aznaviy qo'shini butunlay tartibsiz holatga tushdi va to'rt tomonga qochib ketdi. Dandanoq jangida qo'shin butunlay tarqalib ketgach, amir faqatgina bir necha ishonchli shaxsiy g'ulomlari va amaldorlari bilan yolg'iz qoldi. Abu Sahl va Abulhasan ibn Dilshod kabi mansabdorlar ham tasodifan u bilan birga qolishgan edi. Bosh qo'mondon Begtug'di va g'ulomlar, hind, kurd va arab askarlari hech qanday tartibsiz, o'z holicha sahroning turli tomonlariga qochib ketishdi.

Dushman qo'shinning yuklari va qurollariga tashlanib, ularni talon-taroj qila boshladi. Lekin amirning yoniga yaqinlashganlarida, u ularga qarshi mardona jang qildi. Amir o'zining zaharlangan nayzasi bilan dushman otliqlari va bahodirlarini mag'lub etdi. Uning shiddatli himoyasi tufayli dushman bir necha bor chekinishga majbur bo'ldi. Amir Mavdud qilichini yalong'och holda ushlab, qo'rqoq askarlariga: "Bir necha chavandoz bo'lsa ham menga qo'shilinglar!" deb qichqirdi. Lekin hech kim javob bermadi. Iztirob va umidsizlikka tushgan amir yolg'iz o'zi ortga, otasining yoniga qaytishga majbur bo'ldi. Qo'shinning o'ng va chap qanotlari parokanda bo'lib ketdi, har kim o'z hayoti har tarafga tarqalib ketdi [2]. Amir va uning lashkari havz bo'yida to'xtaganida, u yerda qaror topib, qayta safarbar bo'linadi, degan taxmin bo'lgan edi. Aslida esa ular bayroq va ramzlarni yig'ishtirib, ketishga tayyorlanayotgan edilar. Peshin chog'ida turkman askarlari ko'rinib, vaziyat yanada og'irlashdi. Shunda Amir ukasi Abdurashid, o'g'li Mavdud hamda nufuzli lashkarboshilar bilan birga tezlikda chekinib, G'arjiston tomon yo'l oldi. Yo'l davomida turkmanlar ularni ta'qib etib, yuk va jihozlarni talon-toroj qildilar.

Sulton Mas'ud Marv ar-rudga yetib borib, ikki kun to'xtadi va orqada qolgan kuchlar ham unga qo'shildi. Amir shoshilinch safar davomida josuslar orqali dushman harakatlaridan xabardor bo'lib turdi. Xatlarda turkman lashkarlari qo'rquvga tushib, qarorgohlarini orqaga ko'chirayotgani, kichik guruhlarda hujum qilib, g'aznaviylar ustun kelishga urinayotgani bildirilgan edi. Biroq g'aznaviy qo'shinining zaiflashuvi saroy g'ulomlarining xiyonati bilan bog'liq edi. Shu g'alabadan so'ng To'g'rulbey taxt o'rnatib, o'zini Xuroson amiri deb e'lon qildi. O'sha kuni turkmanlarga katta miqdorda oltin-kumush, mol-mulklar tarqatildi, hamda xiyonat qilgan g'ulomlar mansab va boylik bilan mukofotlandilar. Keyin To'g'rulbey Nishopurga, Yabg'u Marvga, Dovud esa Balx va Toxariston tomon yurishni rejalashtirdi. G'aznaviy piyoda qo'shinlari esa Amudaryo tomon quvib borildi. Amir esa G'urdagi bir qishloqda mahalliy zodagonlar tomonidan kutib olindi va ikki kun lashkarni dam oldirdi. G'urliklarning mehmondo'stligiga qaramay, Sulton Ramazon hayitini nihoyatda sokin va iztirobli ruhda qarshi

oldi. Sulton ikki kundan soʻng Gʻur yoʻli orqali Gʻaznaga katta sharmandalik bilan kirib kelgan. Chunki Gʻaznaviy sultonlari tarixda birinchi marta bunday ogʻir magʻlubiyatni boshdan kechirayotgan edilar. Sulton Gʻaznaga qaytib kelgach, birinchi qiladigan ishi Dandanaqon jangida amrga boʻysunmagan va sustkashlik koʻrsatgan uch qoʻmondonga qarshi qatʼiy choralar koʻrish boʻldi. Bular Ali Doya – bosh qoʻmondon, katta Hojib Suboshi va Hojib Bektugʻdi edi. Ular hibsga olinib, boylik va mulklari musodara qilindi. Oʻsha kunning oʻzidayoq ularning barchasi qatl etildi [4]. Ushbu magʻlubiyat Gʻaznaviy sulolasi uchun faqat Marv viloyatini yoʻqotish emas, balki ayni paytda butun Xuroson ustidan ham hukmronlikni boy berish deganidir. Sulton Masʼud shunday degan: "Otam Mahmud Marvni egallash orqali Somoniylar davlatiga soʻnggi zarbani bergan edi. Shuningdek, Marv ustidan hukmronlik qilish orqali butun Xurosonni oʻz qoʻliga olgan edi" [2].

Sulton Masudning Dandanaqon devorlari ostidagi magʻlubiyati yangi davlatning tugʻilishidan xabar berdi. Sulton taxti oʻrnatilib, jang boʻlgan joyda chodir oʻrnatilib, Tugʻrulbeyga Sulton sifatida salom berildi, Bu gʻalabalardan soʻng darhol Saljuqiy beklari, Turkiston qoraxoniy xonlari va xalifa Qoimga gʻalaba yorliqlari yuboradilar.

**Gʻaznaviylar magʻlubiyatining sabablari:** Magʻlubiyatning eng katta sabablaridan biri, hatto eng muhimi ham Sultonning oʻz xatosi edi. Biroq davlatning asosiy muammolarini tashkil etgan va Sulton Mahmud Gʻaznaviy hukmronligi davridan kelib chiqqan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy amaliyotlar har bir masalada boʻlgani kabi bu urushda ham Gʻaznaviylar sulolasiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Davr manbalari va oʻsha davrga oid tadqiqot manbalariga nazar tashlasak, Sulton Masʼudning xatosini koʻrish mumkin. Bular:

1. Gʻaznaviy sultonining qoʻshinni Marvga olib borishni talab qilishi: Bu ham davlat amaldorlariga ishonchsizlikni keltirib chiqardi.
2. Qoʻshin boshliqlarining gapiga quloq solmaslik: Sultonning davlat amaldorlariga nisbatan ishonchsizligi qoʻshin ichidagi xushomadgoʻylarga ham imkoniyat yaratdi.
3. Dandanaqon qalʼasidan besh farsang uzoqlikdagi havza tomon oldinga siljish qarori: Ham xalqning, ham ulugʻlarning besh qudugʻi boʻlgan Dandanaqon qalʼasi yonida turish maqsadga muvofiq, degan fikrga qarshi chiqqan oʻjar amir bu qarori bilan qoʻshinning gʻalaba umidini puchga chiqardi.
4. Saroy gʻulomlari boshligʻi Begtugʻdini maxfiy kengashga chaqirmaslik, natijada gʻulomlarda sultonga nisbatan adovatni yuzaga kelishiga sabab boʻldi

Magʻlubiyatning yana bir sabablaridan biri suv tanqisligi. Saljuqiylar tomonidan mintaqa quduqlarining qurgʻoqchilik tufayli vayron boʻlishi, bir tomondan; Bu Gʻaznaviylar qoʻshinini ogʻir ahvolga solib qoʻydi. Hattoki, askarlar bir-biri bilan urishib, ichki tartibsizliklarni keltirib chiqardi.

**Dandanaqon urushining mintaqaga taʼsiri:** Urushning mintaqaga taʼsiri urush tugaganidan soʻng darhol koʻrina boshladi. Xurosondagi yerlaridan qattiq magʻlubiyatga uchragan Gʻaznaviylar sulolasi obroʻ-eʼtiborini yoʻqotgan boʻlsa; Boshqa tomondan, Buyuk Saljuqiylar davlati rasman tashkil topdi.

**Dandanaqon jangidan keyingi Gʻaznaviylar davlatining ahvoli:** Dandanaqon magʻlubiyatining Gʻaznaviylarga salbiy taʼsiri va davlatning tanazzuliga yoʻl ochganligini ifodalashimiz va ularni quyidagicha sanab oʻtishimiz mumkin.

1. Xuroson yerlari Gʻaznaviylar qoʻlidan chiqdi.

2. Gʻaznaviylar davlatining ichki va tashqi nufuzi pasaydi.

3. Sulola vakillari oʻrtasidagi raqobat va nizolarni kuchaytirib yubordi.

4. Davlat hududining qisqarishiga olib keldi.

5. U Dandanaqon maydonida barcha mol-mulkini qoldirib, qochishga majbur boʻlganligi sababli juda koʻp mol-mulklar qoʻldan boy berildi.

6. Bu magʻlubiyat poytaxt Gʻaznani ham xavf ostiga qoʻydi va Masʼudni Hindiston hududiga chekinishga majbur qildi.

**Dandanaqon jangida saljuqiylar erishgan ustunliklar:** Bu gʻalaba; Avvalgi gʻalabalardan juda farq qilib, saljuqiylarga yangi davlat barpo etish kafolatini berdi. Shuningdek, bu gʻalaba; Bu, bir tomondan, gʻaznaviylarning achchiq magʻlubiyatdan soʻng Xuroson hududini boy berganini bildiradi; Boshqa tomondan, Abbosiylar davrida Xuroson hududida tashkil etilgan Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar va Gʻaznaviylar keyin beshinchi davlat sifatida tashkil etilgan Saljuqiylar qoʻliga tushishiga sabab boʻldi. U saljuqiylarga ham moddiy, ham maʼnaviy jihatdan koʻp narsalarni olib keldi. Sulton Masʼud jang maydonini tark etgandan soʻng darhol davlat poydevori qoʻyildi.

1040-yil 23-may, juma kuni bu gʻalabadan soʻng saljuqiylar uchligi boshliqlari otlaridan tushib, sajda qilib, Xudoga shukronalar aytishdi. Urushdan soʻng darhol dalaga chodirlar qurildi va qurultoydan soʻng Tugʻrulbey Xuroson sultoni sifatida olqishlandi. Qolaversa, oʻljalarning koʻp qismi askarlarga taqsimlanib, ularga qoʻshilgan Gʻazna saroyi gʻulomlariga va doimiy gʻalabadan darak beruvchi munajjimga koʻplab sovgʻalar berildi. Gʻalabadan xabar berish maqsadida Qoraxoniylar xonlariga, boshqa Turkiston oqsoqollariga, Eron sultonlariga, shuningdek, xalifaga gʻalaba toʻgʻrisida xabar beruvchi maktublar yuborildi [1]. Qonuniy ravishda davlat yerlari; Eski turk maʼmuriy tuzumiga koʻra sulola aʼzolarining umumiy mulki hisoblanganligi sababli qurultoydan keyin rahbarlar oʻrtasida taqsimlandi.

Sulton sifatida Tugʻrulbey Nishopurni va gʻarbdagi bosib olinadigan hududlarga egalik qiladigan boʻldi.

Dovudbek esa Malik unvoni bilan dastlab Marvni, keyinchalik esa Gʻaznaga qadar boʻlgan barcha Xuroson, Xorazm va Jayxun atroflarini qoʻlga kiritgan.

Yabgʻubey Hirot, Isfaroz va Seiston hududlarini oʻz qoʻl ostiga olgan. Bu uchlik endilikda oʻz hududlariga pul zarb ettirish, oʻz nomlariga xutba oʻqitishlari mumkin edi. Ammo ular hamisha markaz bilan aloqa boʻlishlari, shuningdek xutbada dastlab Toʻgʻrulbeyning nomini aytishi, Sultonga yordam kerak boʻlgan vaqtda esa hamisha qoʻshini bilan tayyor turish sharti qoʻyildi.

Shunday qilib, Saljuq bilan boshlanib, oʻgʻli Arslon Yabgʻu va ayniqsa nabiralari Tugʻrul va Dovud bey bilan davom etgan asrlik kurash gʻalaba bilan yakunlandi; Manbalarda “Saljuqiylar” deb atalgan va zamonaviy tarixchilar tomonidan “Buyuk Saljuqiylar davlati” deb atalgan Turk davlatining barpo etilishi yakunlandi. Tugʻrul va Chagʻribeylarning bobosi Saljuq nomi bilan atalgan turk sulolasi shakllana boshladi. Turli manbalardan maʼlum boʻlishicha, gʻalaba saljuqiylarga ham moddiy, ham maʼnaviy kuch bagʻishlabgina qolmay, balki Gʻaznaviylar qoʻshini kabi oʻsha davrning eng qudratli va yaxshi qurollangan qoʻshinini magʻlub etishga ishonch hosil qildi. Oʻzining eng katta dushmani boʻlgan Gʻaznaviylarni yoʻq qilgandan keyin Tugʻrulbey oʻz davlatini kengaytirib, umumiy avf eʼlon qildi va xalqdan soliq undirmadi. Bundan tashqari u davlat tarkibidagi mayda xalqlarni oʻz hukmronligiga boʻysundirib, ularni dinida va tilida erkin qoldirdi.

Gʻalabadan keyin armiya tashkilotida muhim oʻzgarishlar amalga oshirildi. Saljuqiylar qoʻshini Dandanaqon gʻalabasiga qadar oʻgʻuz (turkman) otliqlaridan iborat edi. Dandanaqon gʻalabasidan soʻng Gʻaznaviylardan oʻrnak olgan saljuqiy beylar ham xuddi oʻzlari kabi "gʻulom tizimi" boʻyicha tayyorlangan turklardan qoʻshin tuza boshlaydilar. Shu sababli ular Dandanaqon urushi oldidan ham, urush paytida ham oʻzlariga panoh topgan Gʻaznaviy gʻulomlarini xizmatga oldilar. Shu tariqa yangi saljuqiylar qoʻshinining poydevori qoʻyildi. Boshqa tomondan, Tugʻrulbey gʻalabadan soʻng darhol Nishopurda suverenitet ramzi sifatida birinchi tangani zarb qildi. Ushbu tangada Tugʻrulbeyning rasmiy unvoni sifatida "oliy amir" iborasi bor edi.

Dandanaqon gʻalabasidan soʻng saljuqiylar uzoq muddatli harbiy yurishlar va atrofdagi mamlakatlarni zabt etishga kirishdilar. Oʻgʻuz-turkman urugʻ beklari Saljuqiylar sulolasi boshchiligida keng koʻlamli istilolarga kirishdilar. Bu gʻalaba saljuqiylarga, ayniqsa Gʻarbga yoʻl ochish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Gʻalabadan soʻng kuch uchburchagi sifatida avval Xurosonni, keyin esa Eronni qoʻlga kiritgan saljuqiylar Ganja yaqinida Vizantiya qoʻshinini magʻlub etib, Anadoluga bostirib kirishadi.

**Xulosa.** Dandanaqon jangı Gʻaznaviy sulolasi uchun faqat hududiy magʻlubiyat emas, balki ularning mintaqaviy hokimiyatining yemirilishi nuqtasi boʻldi. Jangga olib kelgan omillar orasida markaziy hokimiyatning zaifligi, logistika va taʼminot muammolari, ichki fraksiyalar va sultonning nooqilona qarorlari alohida rol oʻynadi. Natijada Saljuqiylar Xurosonni egallab, yangi siyosiy tuzilma Buyuk Saljuqiylar davlati barpo etilishiga zamin yaratdilar. Ushbu voqea XI asr Markaziy Osiyo geosiyosatiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Mohammad Qosım Íbadi. Dandanakan savaşi ve taríhteki önemi. Konya.2011. – S. 156.
2. بیهقی محمد بن حسین. تاریخ بیهقی.مشهد.۱۳۸۳.ص. ۵۳۵
3. Abu'l-Fazl Beyhaqi. Translated by Bosworth. The History of Beyhaqi.Volume II. Massachusetts. Harvard University Press. 2011. – P.578.
4. Abu Sa'id Abdulhay Gardiziy. The ornament of histories a history of the eastern islamic lands. London. 2018. – P.144.
5. Bosworth, C.E.The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran, 994-1040.1963. – P.331
6. Peacock, A. The Great Seljuk Empire. 2015. – P.392.
7. Boyle, J.A. The Cambridge History of Iran, Volume 5: The Saljuq and Mongol Periods .1968 . – P.778.
8. Paul, Jürgen The State and the Military in Iran: The Transition from the Ghaznavids to the Saljūqs.2012. – P.250.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).